

INNOVATSIYALAR IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Rahimberdiyeva Muborak Rustam qizi*AIFU iqtisodiyot yo‘nalishi 1-kurs magistri*

Annotatsiya. *Bilamizki, innovatsiyalar iqtisodiy o‘shining muhim omili sifatida zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Ushbu tezisdagi innovatsiyalarning iqtisodiy o‘shidagi nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Xalqaro tajribada Jozef Shumpeterning “ijodiy vayronagarchilik” konsepsiyasi, Pol Romerning endogen o‘sh nazariyasi va so‘nggi Nobel mukofoti sohiblari ishlariga asoslanib, innovatsiyalar texnologik taraqqiyot va bilim kapitali orqali barqaror o‘shni ta‘minlashi ko‘rsatib o‘tiladi. O‘zbekiston misolida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi va Global innovatsion indeks (GII) ma‘lumotlari asosida mamlakatimizda innovatsiyalarning iqtisodiy o‘shiga ta‘siri o‘rganib chiqildi. Tadqiqot ishida muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga doir bir qancha takliflar berildi. Natijalar innovatsiyalarni iqtisodiy o‘shining strategik omili sifatida mustahkamlash zarurligini ko‘rsatdi. Tezis O‘zbekiston va xalqaro manbalarga asoslangan bo‘lib, amaliy ahamiyatga egadir.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiyalar, iqtisodiy o‘sh, endogen o‘sh nazariyasi, ijodiy vayronagarchilik, Global innovatsion indeks, O‘zbekiston innovatsion strategiyasi, tijoratlashtirish, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy o‘sh an‘anaviy omillar hisoblanmish mehnat, kapital, tabiiy resurslardan tashqari, innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotga tobora bog‘liq bo‘lib bormoqda. Klassik nazariyalar texnologik o‘zgarishni tashqi omil deb hisoblasa, endogen o‘sh nazariyalari uni ichki, bilim va tadqiqot natijasi sifatida ko‘radi. O‘zbekiston uchun bu mavzu ayniqsa dolzarbdir hozirgi kunda. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida innovatsiyalar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, eksportni oshirish va ish o‘rinlarini yaratishning asosiy vositasi sifatida belgilangan. 2025-yilda YaIM 7,7% o‘shini ichki talab, urbanizatsiya va innovatsion loyihalar hisobiga erishilganini ko‘rsatadi. Tadqiqotning maqsadi – innovatsiyalarning iqtisodiy o‘shidagi rolini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, O‘zbekiston tajribasini xalqaro tajriba bilan solishtirish va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Quyida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariy asoslarni o‘rganish;
2. Xalqaro tajribani tahlil qilish;
3. O‘zbekistonda innovatsiyalar holatini baholash;
4. Muammolarni aniqlash va yechimlarni taklif etish.

Tadqiqot ishini o‘rganib chiqish davomida tizimli tahlil, statistik solishtirish, xalqaro hisobotlar va O‘zbekiston statistikasidan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi –

O'zbekistonning 2022–2026 strategiyasi va 2025-yil natijalarini endogen nazariya bilan bog'lashdan iboratdir. Amaliy ahamiyati esa davlat siyosati uchun bir qancha tavsiyalar berishni tashkil etadi.

Asosiy qism. Innovatsiyalar tushunchasi birinchi marta Jozef Shumpeter tomonidan “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (1912/1934) asarida kiritilgan. U innovatsiyalarni yangi mahsulot, texnologiya, bozor yoki tashkiliy shakllar sifatida belgilab, “ijodiy vayronagarchilik” jarayoni orqali eski korxonalarni siqib chiqarib, yangi o'sishni ta'minlashini ta'kidlagan. Shumpeter bo'yicha innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateli bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining natijasidir.

Keyingi bosqichda Pol Romer (1986, 1990) endogen o'sish nazariyasini ishlab chiqdi. Uning modelida texnologik o'zgarish ichki omil: tadqiqot va ishlanmalar (R&D) xarajatlari, inson kapitali va bilimning spill-over effekti orqali o'sishni ta'minlaydi. Romer quyidagicha fikrni ilgari suradi: bilim – cheksiz resurs, shuning uchun iqtisodiyot kattaroq inson kapitaliga ega bo'lsa, tezroq o'sadi. Bu nazariya Solou modelidan farqli o'laroq, texnologiyani tashqi emas, balki ichki deb hisoblaydi. So'nggi yillarda Aghion va Houittning “ijodiy vayronagarchilik” modeli (1992) va Mokirning tarixiy tahlili (2025 Nobel mukofoti) bu nazariyalarni rivojlantirdi. Ular innovatsiyalarni raqobat va “business stealing” effekti orqali barqaror o'sish manbai deb ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, nazariy jihatdan innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni uchta yo'l bilan ta'minlaydi: yangi mahsulotlar orqali talabni oshirish, samaradorlikni ko'tarish va inson kapitalini rivojlantirish. Xalqaro tajribada innovatsiyalar iqtisodiy mo'jizani yaratgan. Janubiy Koreya 1960-yillardan boshlab R&D xarajatlarini YaIMning 4% gacha yetkazib, Samsung va Hyundai kabi gigantlarni yaratdi. Xitoy “Made in China 2025” strategiyasi orqali yuqori texnologiyalarga o'tdi va dunyoda patentlar bo'yicha yetakchiga aylandi. AQShda Silikon vodiysi venchur kapitali va universitetlar hamkorligi (Stanford) orqali Google, Apple kabi kompaniyalar paydo bo'ldi. Bu misollar Romer nazariyasini amalda tasdiqlaydi: innovatsiyalar eksportni oshirib, YaIM o'sishini 2–3 baravar tezlashtiradi. O'zbekiston mustaqillik yillarida innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratdi. 2019–2021 strategiyasining muvaffaqiyati natijasida GII reytingida 36 pog'ona ko'tarilish, byudjet mablag'lari 3 baravar oshishi kuzatildi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning markaziga qo'yadi: infratuzilma (texnoparklar, klasterlar), tijoratlashtirish, inson kapitali va hududiy rivojlanish yo'nalishlari belgilangan. Maqsad 2026-yilga GII'da 56 ta ilg'or mamlakat qatoriga kirishdan iborat. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, innovatsion faol tashkilotlar soni o'smoqda, patentlar va startaplar ko'paymoqda. “Raqamli O'zbekiston – 2030” va yashil iqtisodiyot strategiyalari innovatsiyalarni yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birgalikda, R&D xarajatlari YaIMning 0,13–0,2% atrofida (dunyoda 2–4%), tijoratlashtirish past, ilm-fan va sanoat aloqasi zaif, kichik biznesning innovatsion faolligi yetarli emasligi kabi muammolar ham mavjud. Xalqaro solishtirishga nazar tashlaydigan bo'lsak bugungi



kunda O'zbekiston infratuzilma va moliyalashtirish bo'yicha orqada qolmoqda. Tizimni yanada rivojlantirish uchun quyidagicha chora-tadbirlar ko'rilsa albatta foydali bo'ladi.

1. R&D xarajatlarini YaIMning 1% gacha yetkazish va davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish.
2. Universitetlar va korxonalar o'rtasida "1+1" zanjirini kengaytirish.
3. Venchur fondlari va startap akseleratorlarini ko'paytirish.
4. Inson kapitalini rivojlantirish uchun STEM ta'limini kuchaytirish.
5. Hududlarda innovatsion markazlar tarmog'ini yaratish (Chust tajribasini kengaytirish). Bu takliflar strategiyani samarali amalga oshirishga yordam beradi va iqtisodiy o'sishni 8–10% gacha tezlashtirishi mumkin.

Xulosa. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligi nazariy va amaliy jihatdan isbotlangan. Shumpeter va Romer nazariyalari, xalqaro tajriba va O'zbekistonning so'nggi yillardagi yutuqlari (7,7% o'sish, GII'dagi yaxshilanish) shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Bundan tashqari, strategiya to'g'ri yo'nalishda, ammo tijoratlashtirish va moliyalashtirishni kuchaytirish zarur. Agar yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, O'zbekiston yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga kirishi mumkin. Kelajak tadqiqotlari uchun raqamli va yashil innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Theory of Economic Development / Joseph Schumpeter. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.
2. Paul Romer. Increasing Returns and Long-Run Growth. Journal of Political Economy, 1986.
3. Paul Romer. Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 1990.
4. Philippe Aghion va Peter Howitt. A Model of Growth through Creative Destruction. Econometrica, 1992.
5. World Intellectual Property Organization. Global Innovation Index Report. Geneva, so'nggi nashrlar.
6. World Bank. World Development Report va World Development Indicators. Washington DC.
7. OECD. Innovation, Technology and Growth Reports. Paris.
8. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi. Toshkent, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Toshkent.